

Respublika statistika kengashi to'g'risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Respublika statistika kengashi (keyingi o'rinlarda – Statistika kengashi) rasmiy statistikani yuritish tizimini rivojlantirish, muvofiqlashtirish va faoliyat ko'rsatishiga oid masalalar bo'yicha kollegial maslahat organidir.

2. Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan shakllantiriladi.

2-bob. Statistika kengashining vazifalari

3. Statistika kengashining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

(a) rasmiy statistika sohasidagi amaldagi qonunchilik ijrosini ta'minlash va ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda milliy statistika tizimini samarali tashkil etishga ko'maklashish;

(b) mamlakat milliy statistika tizimida umumiy tushunchalar, ta'riflar va tasniflar izchil qo'llab borilishini ta'minlash;

(v) davlat statistika organlari, statistika ma'lumotlarini yuritish vakolatiga ega bo'lgan davlat tashkilotlari hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy statistika sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

(g) milliy statistika tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, innovatsion yondashuv va texnologiyalarni joriy qilish, statistika uslubiyotlarini takomillashtirish va statistika faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar berish;

(d) rasmiy statistikaning eng muhim tamoyillariga, birinchi navbatda, statistika ma'lumotlarining ishonchliligi, xolisligi, tushunarligi va shaffofligiga rioya etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, statistik hisobotlarni yig'ish, ularga ishlov berish va umumlashtirish tartibiga har qanday aralashuvni istisno etuvchi statistika ishlarini tashkil etish tizimini yaratishga ko'maklashish;

(e) statistika ma'lumotlari sifatini oshirish, xususan, milliy hisoblar tizimi ko'rsatkichlarini va ularni hisoblash uslubiyotini xalqaro tashkilotlar tavsiyalariga muvofiq takomillashtirishda ishtirok etish;

(j) rasmiy statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarining milliy modelini va GSBPM xalqaro standart modeliga muvofiq sifatni boshqarishning zamonaviy usullarini joriy qilishni muvofiqlashtirish;

(z) statistik ma'lumotlarning ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash orqali statistika faoliyati samaradorligi ko'rsatkichi reytingini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;

(i) xalqaro statistika tashkilotlarining elektron ma'lumotlar bazalari va maxsus nashrlarida O'zbekiston Respublikasi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni joylashtirishga qaratilgan xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvini rivojlantirishga ko'maklashish;

(y) davlat statistika organlari, shuningdek, ma'muriy ma'lumotlarni yuritish bo'yicha vakolatli davlat organlari faoliyatining natijalarini har yili ko'rib chiqish, statistika kuzatuvlarining respondentlarga bo'lgan yukini kamaytirish, ularni unifikatsiya qilish, soddalashtirish va optimallashtirish maqsadida statistika hisobotlari va kuzatuv shakllarini, shuningdek, uslubiyotlar va tasniflarning qayta ko'rib chiqilishini ta'minlash;

(k) mamlakatda milliy iqtisodiyotni va ijtimoiy sohani isloh qilish jarayonlarini hisobga olishda ishonchlilik va to'liqlikni ta'minlashni inobatga olgan holda bir yillik Statistika dasturini ko'rib chiqish va tasdiqlash;

(l) statistik to'plamlar va byulletenlar nashrini tashkil etish, ularni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish orqali statistika ma'lumotlarining ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash.

3-bob. Statistika kengashining funksiyalari

4. Statistika kengashi asosiy vazifalaridan kelib chiqib quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

(a) Hukumat, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga statistika siyosatining barcha jihatlari bo'yicha maslahat berish;

(b) milliy statistika tizimi faoliyatining ishonchlilik, xolislik, beg'arazlik, tushunarlik va shaffoflik kabi asosiy tamoyillarini amalga oshirishda ko'maklashish;

(v) statistik ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish va umumlashtirish tartibiga har qanday aralashuvni istisno qilishni ta'minlash;

(g) ko'p yillik va bir yillik statistika dasturlarini ko'rib chiqish, bir yillik statistika dasturini tasdiqlash hamda uni amalga oshirish masalalarini monitoring qilish va hal qilishda ko'maklashish;

(d) statistika uslubiyotlarini takomillashtirish va ma'lumotlarni shakllantirishda foydalanuvchilar ehtiyojlarini hisobga olish masalalarini ko'rib chiqish;

(e) statistik va iqtisodiy tahlilning zamonaviy uslublarini, xalqaro standartlarga mos va bozor iqtisodiyoti tamoyillariga javob beradigan ko'rsatkichlar tizimini amaliyotga joriy etish bo'yicha ishlarni tashkil etish;

(j) davlat statistika organlari faoliyatiga innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni samarali joriy etish;

(z) sifatni boshqarishning zamonaviy xalqaro usullarini hisobga olgan holda rasmiy statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarining milliy modelini ishlab chiqish va joriy etishga ko'maklashish;

(i) Milliy statistika qo'mitasiga yuklatilgan vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirishga ko'maklashish.

4-bob. Statistika kengashining vakolatlari

5. Statistika kengashi yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

(a) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, idoralar, korxonalar va tashkilotlardan rasmiy statistikani takomillashtirish bo'yicha belgilangan tartibda ma'lumot so'rash va olish;

(b) davlat idoralari vakillarining axborot yig'ish jarayonlarini tashkil etish masalalari, shuningdek, so'ralayotgan axborotlar bilan rasmiy statistika va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarda mavjud ma'lumotlar o'rtasida takrorlanish holatlarini aniqlash va bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni va hisobotlarni ko'rib chiqish hamda boshqa tashkilotlar vakillarining axborotlarini eshitish;

(v) Statistika kengashi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha o'z yig'ilishlarida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qilish;

(g) rasmiy statistikaning ayrim masalalarini ko'rib chiqish uchun ekspert komissiyalarini tayinlash.

5-bob. Statistika kengashi faoliyatini tashkil etish

6. Statistika kengashining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

7. Statistika kengashi a'zolari ularning kasbiy malakasi va statistika sohasidagi salohiyatidan kelib chiqqan holda tayinlanadi.

8. Statistika kengashini Statistika kengashi raisi boshqaradi. Rais bo'lmagan taqdirda uning vazifasini uning o'rinbosari yoki Statistika kengashi a'zolaridan biri raisning farmoyishiga muvofiq amalga oshiradi.

9. Statistika kengashi majlislari uning a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi miqdorida kvorum mavjud bo'lganda vakolatli hisoblanadi.

10. Statistika kengashining qarorlari majlisda ishtirok etayotgan Statistika kengashi a'zolarining ko'pchiligi ovoz bergan taqdirda, qabul qilingan hisoblanadi.

11. Statistika kengashining qarorlari Statistika kengashi raisi tomonidan tasdiqlanadi. Qarorlarning ijrosini nazorat qilish Statistika kengashi kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

12. Statistika kengashining faoliyati va uning qarorlari ommaviy axborot vositalarida yoritiladi.

13. Milliy statistika qo‘mitasining tegishli bo‘linmasi Statistika kengashining ishchi organi hisoblanadi.